

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

*Boyovut tumani 8-umumiy o'rta ta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Raxmanova Gulbaxor Bobojonovna

Buxoro Innovatsiyalar Universiteti o'qituvchisi

Qayumova Odinaxon Buvarayim qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni yoritilgan. Nutqiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari — tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutq, dialogik va monologik muloqot ko'nikmalari tahlil etilgan. Shuningdek, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar, dars jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'yinli va ijodiy topshiriqlar, baholash mezonlari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar hamda ularning yechimlari muhokama qilingan. Maqolada jadval va diagrammalar asosida tahliliy yondashuv qo'llanilgan bo'lib, o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, nutqiy kompetensiya, og'zaki nutq, yozma nutq, muloqot ko'nikmalari, o'yinli metodlar, baholash mezonlari, pedagogik yondashuv, kommunikativ malaka, til o'rgatish.

Abstract: This article explores the process of developing speech competencies in primary school students. The main components of speech competence—listening comprehension, oral and written expression, as well as dialogic and monologic communication skills—are analyzed. The article discusses effective methods for their development, including game-based and creative assignments applicable in classroom settings, as well as criteria for assessment and solutions to common challenges. Analytical approaches using tables and diagrams are employed, offering practical recommendations for educators.

Key words: Primary education, speech competence, oral speech, written speech, communication skills, game-based methods, assessment criteria, pedagogical approach, communicative skills, language teaching.

Аннотация: В статье рассматривается процесс формирования речевых компетенций у учащихся начальных классов. Проанализированы основные компоненты речевой компетенции — аудирование, устная и письменная речь, а также навыки диалогического и монологического общения. Освещены эффективные методы развития этих навыков, игровые и творческие задания, применимые в учебном процессе, критерии оценки, а также возможные проблемы и пути их решения. В статье используется аналитический подход с применением таблиц и диаграмм, даны практические рекомендации для учителей.


Ключевые слова: Начальное образование, речевая компетенция, устная речь, письменная речь, коммуникативные навыки, игровые методы, критерии оценки, педагогический подход, коммуникативная компетентность, обучение языку.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning muloqotga kirishish, fikr bildirish va o'z fikrini aniq bayon eta olish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf davrida bu ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchining kelajakdagi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Nutqiy kompetensiya — bu nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri gapira olish, balki muloqot jarayonida fikrni tushunarli, mantiqiy va madaniyatga mos tarzda ifoda eta olish qobiliyatidir.

Nutqiy kompetensiya — bu o'quvchining og'zaki va yozma nutqda fikrini aniq, mantiqiy va madaniy ifoda eta olish qobiliyatidir. U quyidagi bosqichlar orqali shakllanadi:

- **reproduktiv bosqich** – tayyor matn yoki gaplarni takrorlash.
- **rekonstruktiv bosqich** – mavjud matn asosida o'z fikrini shakllantirish.
- **kreativ bosqich** – mustaqil ravishda fikr bildirish, hikoya tuzish, og'zaki yoki yozma matn yaratish.

Nutqiy kompetensiya bosqichlari (1-jadval)



Ushbu jadvalda ko‘rinib turibdiki, nutqiy kompetensiya o‘shining tabiiy ketma-ketligi mavjud bo‘lib, har bir sinfdan u tobora murakkablashadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda quyidagi pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Faol o‘qitish texnologiyalari – interaktiv metodlar, o‘yinli usullar, guruhli ishlar orqali o‘quvchilarning muloqotga kirishishiga imkon yaratadi.

2. Individual yondashuv – har bir bolaning psixologik va nutqiy xususiyatlariga mos metodlar tanlash.

3. Integratsiyalashgan yondashuv – ona tili bilan bir qatorda boshqa fanlarda ham (tabiiy fanlar, texnologiya, san‘at) nutqiy topshiriqlarni qo‘llash.

4. Muhit yaratish – bolalar o‘z fikrini bimalol, erkin ifoda eta oladigan ijtimoiy va psixologik muhitni tashkil etish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘qituvchi “O‘qish savodxonligi”, “Ona tili”, “Tarbiya” va boshqa ona darslarni samarali tashkil etish bilan bir qatorda quyidagi ko‘rinishdagi metodlardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

O‘yin texnologiyalari:

- "Kim gapiryapti?", "Xatoni top", "Rangli kartochkalar yordamida gap tuzish" o'yinlari;
- nutqiy dramatizatsiya (ertak personajlarini rollarga bo'lib ifodalash).

Didaktik material:


- rasmlar, kartinalar, kollajlar asosida og'zaki hikoya tuzish;
- video va audio materiallar asosida matn qayta hikoya qilish.

Ijodiy topshiriqlar:

- "Agar men... bo'lsam" mavzusida erkin nutq topshiriqlari.
- "Gapni davom ettir", "Voqeani tugat" kabi topshiriqlar orqali mustaqil fikrlashga o'rgatish.

O'quvchilar nutqiy kompetensiyasini baholash mezonlari. O'quvchining nutqiy kompetensiyasini baholashda quyidagi mezonlar hisobga olinadi(2-jadval):

Mezon	Tavsif
Til boyligi	So'zlar va iboralardan to'g'ri va xilma-xil foydalanish.
Grammatik to'g'rilik	Gap tuzilishi, so'zlarning kelishikda ishlatilishi.
Mantiqiy izchillik	Fikrlar ketma-ketligi va yaxlitligi.
Nutq madaniyati	Muloyimlik, odob, nutqda etik qoidalarni saqlash.
Emotsional ifoda	Nutq ohangi, intonatsiya, mimika va jestlar.



Ushbu statistik ma'lumotlar sinf kesimida o'quvchilarni kuzatish natijasida to'plangan ma'lumotlar asosida tuziladi va dars metodikasini tanlashda muhim rol o'ynaydi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga tizimli va bosqichma-bosqich yondashish zarur. Jadval va diagrammalar yordamida metodik tahlil natijalarini ko'rsatish o'qituvchiga individual va umumiy yondashuvni aniqlashda katta yordam beradi. Nutqiy kompetensiya bolada nafaqat tilga oid bilimlarni, balki muloqotda muvaffaqiyatga erishish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. O'qituvchining har bir darsda til o'rgatish bilan birga, nutqiy faoliyatga yo'naltirilgan topshiriqlarni berib borishi, o'quvchining so'z boyligi, mantiqiy fikrlashi va muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Pecherkina A. A., Symanyuk E. E., Umnikova Ye. L. Razvitiye professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika: monografiya. - Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg, 2011. – 233 s.
2. Fishman L.I. Modeli obrazovatel'nogo menedjmenta: obzornyy analiz // Shkolnye tekhnologii. – 1999 № 1-2. – S. 112-121.

3. “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvch ilarida ona tiliga oid lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishning nazariy asoslari” “KASB-HUNAR TA’LIMI” ilmiy-uslubiy, amaliy ma’rifiy jurnal, 6-son, 2024-yil.

4. “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvch ilarida ona tiliga oid lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishning nazariy asoslari” “Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari”. – 2024. 495-502 b.

5. Yusupova Gulara Atakhanovna “Methodology of using blended learning in the formation of linguistic competencies of future teachers (on the example of electronic learning resources “Savodkhon” in Uzbek language classes)” Ped.fan.doc.diss. T.:2020.